



## Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-aprel holatiga)

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan  
o'tgan

30587  
ta

2019-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 1811 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 633 taga ko'pdir.

Faoliyat  
ko'rsatayotgan

29253  
ta

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3821 ta (15,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 29253 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil  
etilganlar

1811  
ta

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)

30587 tani  
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar  
soni, birlikda




13,4 %

O'tgan yilning shu  
davriga nisbatan  
o'sish sur'ati

2019-yilning 1-aprel holatiga 30587 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,4 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,5 % savdo, 20,5 % sanoat, 8,9 % qurilish, 6,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,9 % axborot va aloqa hamda 24,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (8111 ta) savdo, (6264 ta) sanoat, (2719 ta) qurilish, (2037 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1451 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1183 ta) tashish va saqlash, (687 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (586 ta) axborot va aloqa hamda (7549 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 29253 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3821 ta (15,0 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

# Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (9712 ta), Asaka (2719 ta), Shahrixon (1953 ta) va Andijon (1951 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Xonobod shahri (469 ta), Ulug'nor (589 ta), Bo'z (732 ta) hamda Buloqboshi (752 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-mart oylarida 1811 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 633 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (804 ta), sanoat (417 ta), qurilish (189 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (90 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (22 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (27 ta), tashish va saqlash (59 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



804

Tashish va saqlash



59

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



90

Qurilish



189

Sanoat



417

Axborot va aloqa



22

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



27

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



58


Boshqa turlari



145


# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Andijon shahri (547 ta), Shaxrixon (167 ta), Asaka (158 ta) va Andijon (117 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ulug'nor (27 ta), Xonobod shahri (29 ta) hamda Bo'z (35 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda



# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-aprel holatiga)

**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 24517 tani tashkil qildi.**

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona



Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



245 ta



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan 38,4 % o'sgan.**


**Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.**

2019-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 245 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 68 taga yoki 38,4 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 134 tasi qo'shma, 111 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Andijon shahar 95 ta (jamidagi ulushi 38,9 %), Andijon 20 ta (8,2 %), Shahrihon 18 ta (7,3 %) va Asaka tumanida 16 tani (6,5 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'z 4 ta (1,6 %), Ulug'nor 4 ta (1,6 %), Jalaquduq 5 ta (2,0 %), Paxtaobod 5 ta (2,0 %) va Xo'jaobod tumanida 6 tani (2,4 %) tashkil etgan.




# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlashda hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



## 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2019-yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 21 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18 taga ko'paygan.



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 5 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 3 ta, Koreya Respublikasi - 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 2 ta, Afg'oniston Respublikasi - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 2 ta, Italiya Respublikasi - 2 ta, Qozog'iston, Tojikiston va Pokiston Islom Respublikalari - 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 9 ta sanoat, 4 ta qurilish, 3 ta savdo, 3 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 2 tasi axborot va aloqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-aprel holatiga)**



*2019-yil 1-aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 24407 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 17,2 % ga oshgan.*

*2019-yil yanvar-mart oylarida 1741 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 850 taga ko'proqdir.*






•Kichik tadbirkorlik  
subyektlarining eng katta  
ulushi

•Kichik tadbirkorlik  
subyektlarining eng kichik  
ulushi



•Andijon shahri  
35,5 %



•Qo'g'ontepa tumani  
4,4 %




•Asaka tumani  
9,5 %



•Jalolquduq tumani  
3,5 %



•Andijon tumani  
6,8 %



•Xo'jaobod tumani  
3,3 %




•Shahrihon tumani  
6,6 %



•Pahtaobod tumani  
3,1 %



•Oltinko'l tumani  
5,3 %



•Buloqboshi tumani  
2,4 %




•Baliqchi tumani  
5,0 %




•Bo'z tumani  
2,3 %




•Marhamat tumani  
4,5 %



•Ulug'nor tumani  
1,8 %




•Izboskan tumani  
4,5 %



•Honaobod shahri  
1,5 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 24407 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 7341 ta (31,4 %) – savdo, 5917 ta (24,2 %) - sanoat, 2605 ta (10,7 %) - qurilish, 1884 ta (7,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1370 ta (5,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1132 ta (4,6 %) - tashish va saqlash, 589 ta (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 548 ta (2,2 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2721 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

46,1 %



Sanoat

23,9 %



Qurilish

10,9 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,2 %



Tashish va saqlash

3,4 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

3,3 %



Axborot va aloqa

1,3 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,6 %




Boshqa turlar

4,3 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 803 ta, sanoat 416 ta, qurilish 189 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi 90 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 22 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 27 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 58 ta hamda tashish va saqlashda 59 ta tashkil etilgan.


# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Andijon shahri (522 ta), Shahrixon (167 ta), Asaka (149 ta) va Andijon (114 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Ulug'nor (26 ta), Honobod shahri (29 ta) hamda Bo'z (33 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-aprel holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan    ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan    ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-aprel holatiga



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 45,1 % yoki 275 tasi sanoat, 21,6 % yoki 132 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,8 % yoki 72 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,0 % yoki 61 tasi savdo, 1,6 % yoki 10 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % yoki 8 tasi qurilish, 0,8 % yoki 5 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 5 tasi axborot va aloqa hamda 7,0 % yoki 42 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Andijon viloyati statistika  
boshqarmasi Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi**

**Tel.:74-228-29-74**